

ZAMONAVIY PROFESSIONAL RASSOM – KULOL NAZIRA KUZIYEVANING  
NOAN'ANAVIY ASARLARIDA MAJOZIY OBRAZLARNING BADIY TALQINI

Zuxurova Moxinur Baxodir qizi

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutti*

*Badiy kulolchilik yo'nalishi magistri*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada zamonaviy professional rassom-kulol Nazira Kuziyevaning noan'anaviy asarlarining majoziy obrazlarning badiy talqini haqida qisqacha tahlili keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Naqsh, rang, kompozitsiya ,kulolchilik, an'ana, bezak ,san'at, ijod, instal'yatsiya, asar, rassom.*

**Ключевые слова:** *узор, цвет, композиция, керамика, традиция, украшение, искусство, творчество, инсталляция, произведение, художник.*

**Keywords:** *pattern color, composition, pottery, tradition, decoration, art, creation, installation, work, artist.*

Badiiy kulolchilik san'ati dekarativ amaliy san'atning eng boy va go'zal turlaridan biridir. Ushbu san'at qadimdan rivojlanib kelmoqda. Shuning bilan birga, keyingi yillar davomida O'zbekiston dekarativ san'atida anchagina o'zgarishlar ro'y berdi. Milliy madani qadriyatlarni qayta tiklash, milliy madaniyat va uning san'atdagi in'ikosini anglash jarayoni kuchaydi.

O'zbekistonning mustaqilliga erishish millatning madaniyati va san'atida yuz bergan yangilashlarning bosh omiliga aylandi. Noan'anaviy asar yaratuvchi rassom – kulollarning innovatsion ijodiy g'oyalarini rivoj uchun zarur sharoitlarni yaratib berishidagi o'rnni belgilash va jiddiy e'tibor qaratishni talab qildi.

XXI asr boshida rassomlar dunyoqarashida yuzaga kelgan erkinlik va o'z fikrini bemalol ifodalashni xis qilish tuyg'u milliy san'atning poetikasi o'zgaritib yubordi: san'at falsafasi va undagi uslubiy qonuniyatlarda o'zgarishlar davri boshlandi. Ko'rgazmalarda o'z falsafiy mohiyati va uslubga ko'ra betakror asarlar tez-tez ko'rina boshladi. Bu borada quyidagi yo'nalishlarni ko'rish mumkin edi:

- Milliy madaniyat segmentlariga murojat qilish asosida badiiy ifoda tilining metaffizasiysi;
- Plastik shakllarni yangicha anglashga intilish;
- Juhon san'atining peshqadam yo'nalishlariga xos tajribalarni chuqur mushohada etish;
- Plastik jihatdan alohida ajralib turuvchi instal'yasiya, video-art, fotokallaj singari san'at shakllarida bajarilgan asrlar yaratish.

Ta'kidlash joizki, bu borada F.Tashmuxamedov, N.Kuziyeva, B.Abdusalomov, K.Siddikov, A.Avakyan kabi rassom – kulollar O'zbekiston kulolchilik san'atining an'anaviy usul va mavzularidan mohirona foydalangan holda zamonaviy dekorativ san'at jarangdorligiga ega bo'lgan bir qator noyob va original asarlar yaratganlar.

Nazira Ko'ziyeva taniqli rassom – kuloldir. Ko'p yillar mobaynida Respublika badiiy hayotida faol ishtirok etib kelmoqda. N.Ko'ziyeva 2003 yildan O'z RIU a'zosi, amaliy – bezak san'atida

sho'basini boshqarmoqda. Ko'ziyevaning asarlari nafaqat O'zbekistonning balki Yaponiya, Fransiya, Angliya, Misr kabi mamlakatlar kolleksiyalarida saqlanadi.

2007 yili u fransuz – o'zbek san'ati festivali doirasida tashkil etilgan ko'rgazmada o'z asarlarini namoyish qildi. Ta'kidlash joizki, 2005 yilda Ko'ziyeva O'zbekiston Badiiy Akademiyasi g'olib deb topildi.

1988 yil u grant yutib oldi va uch oy chinni idishlari bilan mashhur Shveysariyada bo'ldi. bu safar rassom uchun mahorat maktabi bo'lib koldi. U yerda ko'plab asarlar yaratdi: "Avtportret", "Orollik qiz", "Chig'anoq" va boshqalar. "Chig'anoq" asarida o'z qobig'iga o'ralib olgan tashqi hissiyotlardan maxrum odam obrazi tasvirlangan.

Ko'ziyeva yorug'lik va soyani rang deb hisoblaydi. Uning uchun oq rangli shamot eng yaxshi xom ashyodir. Bu materialning o'zi mahsulotni boyitadi. Rassomning ajoyib texnologiyada yaoatgan obrazlari romontik ko'tarinkinligi bilan ajralib turadi. Ularning nomi esa shoirona lisoniy obraz ma'nosini ochib beradi.

N.Ko'ziyeva atrof – muhitning estetik ehtiyojlariga xamohang ifodaviy shakllarni tuzadi. U o'zining noan'anaviy asarlarida an'anaviy naqsh mavzularining o'ziga xos ravishda malqin etadi. Ko'ziyeva o'z asarlar uchun O'rta va Markaziy Osiyo an'anaviy me'morligiga xos unsurlari, qo'hna afsonalar, qadimiy rivoyatlarni asos qilib oladi.

Musavvirning asarlaridagi binolar shakli va olov abadiy hayot ramzidir. Uning kompozitsiyasi bir necha shakldan iborat turkumi esa turli xilda ishlangan, ichida girogi bor baland konusdan iborat. Ushbu asarda an'ana bu – konuslar aslom me'morchiligining ajralmas qismi bo'lgan minoralar ramzdir. Ichqarisiga yoqib qo'yilgan sham ijod oloviga monandir. Ushbu asarda an'ana va yangilik mujassam etgan.

Isntalyasiya N.Ko'ziyevaning yana bir yo'nalishidir. Ko'ziyeva 2005 yili aholini mumtoz va zamonaviy musiqa asarlari bilan tanishtirishdek ezgu maqsad bilan Yevropa, Osiyo va Amerikadan keladigan mashhur ijrochilar bilan birga Mo'g'ulistonda o'tkazilgan VII san'at festivalida ishtirok etdi. O'zbekistonning zamonaviy rassomlari ijodi bilan tanishtirish Qo'ziyevaning zimmasiga yuklangan edi. U ikkita makoniy kompozitsiya yaratdi. "Bag'ishlov" deb nomlangan instalyasiyasi musiqaga muhabbat, ijodkorlar qalbida mangu yonadigan olov, atrof olamning go'zalligini sevish, abadiylik xaqidadir. Amalgama bilan qoplangan oddiy loydan yasalgan belgilardan iborat musiqiy ramzlar turli musiqa asboblarini ifodalaydi. Ular prujinalar bilan saksavul shoxlariga osib qo'yilgan, shamolda bir – biriga urilib, antiqa bir samoviy tovushni hosil qiladi. Bu ramz keyinchalik ma'lum masofada joylashtirilgan kichikroq chiroqlar bilan to'latildi. Kompozitsiyada rassom bir paytning o'zida ham yo'lni, ham go'zallik va uyg'unlik makoniga olovli kirish joyni ifodalashga harakat qildi.

2018 yil sentabr oyida O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Ikuo Xiroyama nomidagi madaniyat karvonsaroyida taniqli rassom – kulol Ko'ziyeva asarlari ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Ko'rgazmada namoyish qilingan asarlarida u o'zining yangicha izlanishlarini aks ettirdi. Mazkur ko'rgazmaning "yelpig'ich anippon, uz." Deb nomlanishi bejiz emas. ko'rgazmani bu tarzda nomlash orqali ikki davlat – O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasidagi madaniy hamkorlik bardavomligiga ishora qilingan. Rassom shu maqsadda bezakli lagan, guldon va instalyasiyalariga yaponlarning buklama yelpig'ichi tasvirini tushirgan. Buklama yelpig'ich esa yapon madaniyatidagi an'anaviy ashyolar sirasiga kiradi.

N.Ko'ziyevaning mazkur ko'rgazmasida namoyish qilingan asarlarda buklama yelpig'ich bilan bir qatorda, anor ham tasvirlangan. Ma'lumki anor o'zbek tasviriy va amaliy san'atida keng qo'llanadigan mavzulardan biridir.

Ijodkor O'zbekiston va Yaponiya uchun xarakterli bo'lgan bu ikki narsa – yelpig'ich hamda anorni birgalikda tasvirlash asosida ko'rgazmaning umumiy g'oyasini ifodalaydi.<sup>25</sup>

Rassom o'zining san'at to'g'risidagi o'y mushohadalarini sopol buyumlarida anor va yelpig'ichni tasvirlash orqali ifoda etgan. Ko'rgazmada namoyish qilingan bezakli lagan guldonda "Yelpig'ich" instalyasiyalarida voqelikka yangicha qarashlar aks etgan.

Rassom – kulol hayot haqidagi o'y-mushohadalar, orzu – istaklarini o'zining sopol ashyolarida aks ettiradi. Ko'rgazmada taqdim qilingan asarlarda "kuz uchun atalgan musiqa" – qadimiy majoz tarannum etadi.

Rassom ko'rib kuzatganlarini qalbidan o'tkazib, poetik obrazlarga aylantirib, taqdim etadi. Shu bois N.Ko'ziyevaning sopol asarlarida anor, hayot daraxti singari ko'hna mavzular ham yangicha ko'rinish, yangicha mazmun kasb etadi. Uning "yashil bahmal" (2017), "Sayr" (2018), "Osoyishta tun" (2018) va boshqa bezakli buyumlari bunga misol bo'la oladi.

Umuman Ko'ziyeva asarlarida shakllarning o'zaro mutanosibligi alohida bo'rtib turadi. Rassom asar mazmunini shu asosida ochib berishga intiladi. Rassom ashyoning bezak beriladigan qismiga alohida e'tibor qaratib, ularda "patnis", "bodom" kabi san'atdagi an'anaviy motivlarni o'zaro uyg'unlashtiradi hamda ularni yangicha talqin etishga harakat qiladi. Uning "Oila" (2018), "Uch dugona" (2018), "Muhabbat mevasi" (2018) singari bezakli laganlari bunga misol bo'la oladi.

Ko'ziyeva asarlaridagi o'ziga xos bezak, naqshlar juda chiroli va nafis tarzda tushirilgan. Bu bezak kompozitsiyalarda o'simliksimon va gul mavzusi asosiy o'rin tutadi. Rassom sopol ashyolarga yaproqli shoh, anor va nok tasvirini mahorat bilan tushiradi. Yaproqli shoh, anor va nok muhim poetik unsur sifatida ashyoning bezakli sathini to'ldirib turadi. O'simliksimon gulli va boshqa mavzular o'ziga xos tarzda o'rin egallab, rangtasvir kompozitsiyasidan makoniy yechimga aylanadi.

Nazira Ko'ziyeva asarlarining ayrimlarida bezaklar falsafiy – majoziy mazmun kasb etsa, boshqa birlarida ranglarning umumiy uyg'unligida lirik – poetik ohang ustunligi kuzatiladi. Asarlarida qo'llaydigan mavzularni hayot voqeligidan oladi.

"Rassom asarlarida narsa – buyumlar o'zining asosiy ma'no – mazmunini, o'zi haqida juda ko'p assosiativ hissiy tasavvur hosil qiladi hamda bir paytni o'zida o'ziga xos milliy xotirani ifoda etadi. Aynan shu holatda badiiy til mahalliy koloritni emas, balki ajdodlar tajribasiga asoslanib, xar bir ashyoning an'anaviy ko'rinishini gamoyish qiladigan xodisaga aylanadi".<sup>26</sup>

Lekin shuni ta'kidlash joizki Ko'ziyevaning asarlaridan o'zbek "yelpig'ichi" va yaponlarning "buklama yelpig'ichi" mavzusi nafaqat yashaydi balki kutilmagan yangi va zamonaviy mavzularda qayta tug'iladi.

Nazira Ko'ziyevaning ijodkor sifatidagi o'ziga xosligi asarlarida ranglarni to'g'ri tanlay bilishi, shakl va xajmni mutanosib qo'llay olishi, makoni xis qilishida namoyon bo'lgan.

<sup>25</sup> Алиева С. "Рассом ижодида шакл ва ранг фалсафаси". Санъат журнали 1/2014

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Алиева С. “Рассом ижодида шакл ва ранг фалсафаси”. Санъат журнали 1/2014
- 2.<sup>1</sup> Алиева С. “Шарқона мажозлар етпифичи”. Санъат журнали 1/2019